

**FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.19.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

NABIYEV G‘OFURJON NOSIRJON O‘G‘LI

**KORXONALARNING TO‘LOVGA QOBILIYATSIZLIGI VA SANATSIYA
JARAYONLARI BUXGALTERIYA HISOBI VA TAHLILINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.08 - “Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit”

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Namangan - 2026

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) in economic
sciences**

Nabiyev G‘ofurjon Nosirjon o‘g‘li

Korxonalarning to‘lovga qobiliyatsizligi va sanatsiya jarayonlari buxgalteriya hisobi va tahlilini takomillashtirish3

Набиев Гофуржон Носиржон угли

Совершенствование бухгалтерского учета и анализа неплатежеспособности и процессов санации предприятий27

Nabiyev Gofurjon Nosirjon ugli

Improvement of accounting and analysis of insolvency and rehabilitation processes of enterprises55

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works60

**FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.19.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

NABIYEV G‘OFURJON NOSIRJON O‘G‘LI

**KORXONALARNING TO‘LOVGA QOBILIYATSIZLIGI VA SANATSIYA
JARAYONLARI BUXGALTERIYA HISOBI VA TAHLILINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.08 - “Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit”

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Namangan - 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Iqt5121 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.fstu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyo.net) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sharipov Batirali Roxataliyevich

iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich

iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich

iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xasanov Baxodir Akramovich

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.I.19.05 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "11" aprel soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 150100, Farg'ona shahri, Farg'ona ko'chasi 86-uy. Tel.: 8(73) 241-12-01, faks: 8(73) 241-12-06, e-mail: info@fstu.uz.

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin 322 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 150100, Farg'ona shahri, Farg'ona ko'chasi 86-uy. Tel.: 8(73) 241-12-01, faks: 8(73) 241-12-06, e-mail: info@fstu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "4" aprel kuni tarqatildi.
(2026-yil "4" aprel dagi 16 raqamli reyestr bayonnomasi).



I.Jaxongirov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

O.T.Nurmatov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

I.N.Ismanov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo mamlakatlarini global iqtisodiy integratsiyalashuvi tufayli kuchli raqobat muhitini shakllanishi, xalqaro maydondagi keskin geosiyosiy vaziyatlar oqibatida ayrim davlatlar, kompaniyalarga qo‘llanilayotgan sanksiyalar, xalqaro fond va moliya bozorlaridagi beqarorlik kompaniyalar uchun logistika, xom-ashyo ta‘minoti, mahsulot realizatsiyasi, daromadlar hamda to‘lov qobiliyatini pasayishi yuzasidan operatsion, boshqaruv hamda moliyaviy risklarni yuzaga keltirmoqda. 2020-yilda boshlangan, deyarli ikki yil davom etgan COVID-19 pandemiyasi oqibatlarini oldini olishga qaratilgan xalqaro va milliy dasturlar jahon iqtisodiyoti uchun ijobiy natijalar olib kelgan bo‘lsada, 2024-yilga kelib ayrim mamlakatlarda kompaniyalarning bankrotlik holatlari sezilarli darajada oshdi. Xususan, “Fransiyada korxonalar bankrotligi 16,8%, Germaniyada 36%, Italiyada 112%, Chexiyada 5%, Sloveniyada 12% ga oshdi”¹. Shu bois moliyaviy inqiroz risklarini kamaytirish maqsadida Xalqaro moliya institutlari, jumladan Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan bankrotlik hamda uni oldini olishga oid me‘yoriy-huquqiy bazalarni takomillashtirishga qaratilgan strategiyalar, uslubiyotlar ishlab chiqilmoqda.

Jahon amaliyotida korxonalarda to‘lovga qobiliyasizlik xolatiga tushib qolishi asosan moliyaviy boshqaruvdagi xatolar, ya‘ni, samarasiz investitsiya loyihalarini amalga oshirilishi, ishlab chiqarishni yetarli marketing tadqiqodlarisiz tashkil etish, aktivlarni noto‘g‘ri taqsimlash, shubhali debitorlik va kreditorlik qarzlarni hamda ularni nomutanosibligi va boshqa ichki hamda tashqi omillar ta‘siri natijasida sodir bo‘ladi. Korxonada bankrotlikning oldini olish va moliyaviy sog‘lomlashtirish (sanatsiya) taomillari yuzasidan sodir bo‘layotgan xo‘jalik jarayonlarini, jumladan aktivlar va majburiyatlarni qayta baholash natijalarini, kreditorlarga to‘lanadigan to‘lovlarni muddatini kechiktirish, qarzlardan chegirma olish, davlat yoki donor tashkilotlar tomonidan beriladigan subsidiya va grantlar moliyaviy hisobini tashkil etish hamda moliyaviy hisobotlarda aks ettirish masalasi korxonaning moliyaviy xolatini real baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois kompaniyalarning to‘lovga qobiliyatsizlik xolatiga tushib qolishini oldindan aniqlash, uning sabablarini tahlil qilish, moliyaviy sog‘lomlashtirish jarayonlarini samarali boshqarish va ularni moliyaviy hisob hamda hisobotlarda shaffof aks ettirish, korxonaning institusional salohiyati va reputatsiyasini baholash tizimlarini takomillashtirish yo‘nalishlaridagi tadqiqot ishlari xozirgi kunda xalqaro darajada dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida bankrotlik institutini shakllantirilishida xalqaro e‘tirof etilgan model va tamoyillardan keng foydalanilmoqda. Iqtisodiy nochor va likvidliligini yo‘qotgan korxonalar taqdirini belgilashga oid qabul qilinayotgan me‘yoriy-huquqiy hujjatlarni maqsadi iqtisodiy nochor xolatga tushgan korxonalarini tugatishga emas, balki ularni iqtisodiy jihatdan sog‘lomlashtirishga hamda tadbirkorligini qaytadan yo‘lga qo‘yishga jiddiy e‘tibor qaratilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil

¹ <https://www.interfax.ru/business/1002055>.

28-oktabrdagi 708-son “Sudgacha sanatsiya qilishni davlat tomonidan yordam ko‘rsatgan holda o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Qaroriga ko‘ra mazkur toifadagi korxonalarni iqtisodiy sog‘lomlashtirish jarayonlari “kreditorlarga to‘lanadigan to‘lovlar muddatini kechiktirish va (yoki) uni bo‘lib-bo‘lib to‘lash yoxud qarzlardan chegirma berish to‘g‘risida qarzdor hamda kreditorlar o‘rtasida kelishuvga erishishga qaratilgan bitimlar, soliq va boshqa vakolatli organlarning qarorlari asosida korxonalarni davlat tomonidan yordam ko‘rsatgan holda sudgacha sanatsiya qilish Davlat aktivlarini boshqarish agentligining qaroriga muvofiq joriy etiladi”.

O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 12-apreldagi O‘RQ-763-sonli “To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158 sonli ““O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 14-avgustdagi 224-son “Soxta to‘lovga qobiliyatsizlik, to‘lovga qobiliyatsizlikni yashirish va qasddan to‘lovga qobiliyatsizlikka olib kelish alomatlarini aniqlash qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2018-yil 14-dekabrda 1013-son “Davlat ishtirokidagi korxonalarni moliyaviy sog‘lomlashtirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 24-avgustdagi 507-son “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 2024-yil 28-oktabrdagi 708-son “Sudgacha sanatsiya qilishni davlat tomonidan yordam ko‘rsatgan holda o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarorida ko‘zda tutilgan vazifalar ijrosini ta’minlashda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I.”Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Korxonalarning to‘lovga qobiliyatsizlik hisobi, sanatsiyalash masalalarini xorijiy olimlar Rachid Achbah, Yoshiko Shirata, Xinlin Wang, Mats Brorsson, Eka Daurrohmah, Edvard Altman, Jay R. Ritter, Stuart C. Gilson, Richard S. Ruback, Aswath Damodaranlar tomonidan tadqiq etilgan².

² Shirata, Cindy Yoshiko. "Financial ratios as predictors of bankruptcy in Japan: an empirical research." Proceedings of the second Asian Pacific interdisciplinary research in accounting conference. 1998. Achbah, Rachid. Firm Failure Between Insolvency Proceedings and Private Restructuring. Diss. Université Jean Monnet-Saint-Etienne, 2023. Wang, Xinlin, and Mats Brorsson. "Augmenting Bankruptcy Prediction Using Reported Behavior of Corporate Restructuring." BenchCouncil International Symposium on Intelligent Computers, Algorithms, and Applications. Singapore: Springer Nature Singapore, 2023. Daurrohmah, Eka Wirajuang, Dekar Urumsah, and Yuni Nustini. "Efektifkah Audit Forensik Dengan Dukungan Whistle-Blowing Digunakan Untuk Mendeteksi Suap?." Integritas: Jurnal Antikorupsi 7.2 (2021): 217-232. Altman, Edward I., et al. "Financial distress prediction in an international context: A review and empirical analysis of Altman's Z-score model." Journal of international financial management & accounting 28.2 (2017): 131-171. Beatty, Randolph P., and Jay R. Ritter. "Investment banking, reputation, and the underpricing of initial public offerings." Journal of financial economics 15.1-2 (1986): 213-232. Gilson, Stuart C. "Bankruptcy, boards, banks, and blockholders: Evidence on changes in corporate ownership and control when firms default." Journal of financial economics 27.2 (1990): 355-387. Jensen, Michael C., and Richard S. Ruback. "The

MDH mamlakatlari olimlaridan R.Chalenko, A.Xomyakova, N.A.L'vova, O.M.Peganova, O.N.Yakubova, M.V.Zotova, R.A.Txagapsolar korxonalarining to'lovga qobiliyatsizlik hisobi va sanatsiyalash masalalariga o'z tadqiqotlarida katta urg'u berganlar³.

O'zbekistonda korxonalarining to'lovga qobiliyatsizligi va sanatsiya jarayonlari hisobi va tahlili masalalari borasida bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilganligini ta'kidlash lozim. Xususan, N.G'.Karimov, K.S.Islomov, M.Yu.Raximov, R.S.Murotov, M.Q.Pardaev, B.Isroilov, R.D.Dusmuratov, A.X.Shoalimov, Sh.A.Tojiboeva, A.V.Vahobov, N.F.Ishonqulov, A.T.Ibrohimovlarning tadqiqotlarini keltirish mumkin⁴.

Yuqoridagi olimlarimizning ishlarida korxonaning to'lovga qobiliyatsizlik holatida shuningdek, sanatsiya jarayonida xisob yuritish, uning faoliyat davomiyligini ta'minlash maqsadida moliyaviy-iqtisodiy ahvoning asosiy ko'rsatkichlari tahlili, korxonalar boshqaruvining doimiy vazifasi sifatida inqirozga qarshi choralarini amalga oshirish bilan bog'liq muammolar kompleks ravishda tadqiq qilinmaganligi mazkur mavzuni tanlash zaruratini belgilab beradi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Tadqiqot Namangan muhandislik-texnologiya institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi korxonalarining to'lovga qobiliyatsizligi va sanatsiya jarayonlari buxgalteriya hisobi va tahlilini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

market for corporate control: The scientific evidence." Journal of Financial economics 11.1-4 (1983): 5-50. Damodaran, Aswath. The dark side of valuation: Valuing old tech, new tech, and new economy companies. FT Press, 2001

³ Чаленко, Роман Владимирович. "Финансовый анализ как инструмент выявления тенденции к банкротству в российской экономике." Вестник Ростовского государственного экономического университета (РИНХ) 1-2 (41, 42) (2013): 77-84. Хомякова, Анна Александровна. "Финансовое оздоровление предприятий: критерий, стратегия, методы." Автореф. канд. экон. наук. Иваново (2007). Львова О. А., Пеганова О. М. Факторы и причины банкротства компаний в условиях современной экономики //Государственное управление. Электронный вестник. – 2014. – №. 44. – С. 64-82. О.Н.Якубова. Организация бухгалтерского учета при осуществлении процедур банкротства. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. –Мичуринск- наукоград РФ, 2007. Зотова М.В. Бухгалтерский учет при ликвидации организации-банкрота. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. –Москва, 2002. Р.А.Тхагапсо. Бухгалтерский учет в условиях несостоятельности хозяйствующих субъектов. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Краснодар, 2005.

⁴ Каримов Норбой. "Корхоналарнинг банкротлик ҳолатлари: келиб чиқиш сабаблари, молиявий соғломлаштириш ва хорижий тажрибалар." Архив научных исследований 33.1 (2020). Исламов, Кудратилла. "Порядок совершенствования механизма ликвидации неплатежеспособных предприятий (предприятий-банкротов) и списания безнадежной налоговой задолженности." Экономическое развитие и анализ 1.5 (2023): 103-111. Raximov, M.Yu. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili: O'quv qo'llanma. Toshkent: Iqtisod-Moliya. (2020). 517 b. Муратов, Р. "Меры и направления реабилитации экономически слабых предприятий в условиях модернизации страны." Экономика и инновационные технологии 3 (2014): 15-26. М.Қ.Пардаев, Б.Исроилов "Иқтисодий таҳлил" (ўқув қўлланма). Т.: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 2001й. Р.Д.Дусмуратов. Корхоналарни тугатишнинг норматив ва ташкилий-услубий таъминотини такомиллаштириш. Яшил иқтисодиёт ва тараққиёт. 2024йил, апрел, махсус сон. А.Х.Шоалимов, Ш.А.Тожибоева. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili: O'quv qo'llanma. Toshkent- "Iqtisodiyot". (2020). 211 b. A.V. Vahobov, N.F. Ishonqulov, A.T. Ibrohimov. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. Darslik. – Т.: «Iqtisod-Moliya», 2013. – 600 b.

Tadqiqotning vazifalari:

korxonalarining to'lovga qobiliyatsizligi hisobi va sanatsiya jarayonlarini iqtisodiy mohiyati va ahamiyatini o'rganish;

korxonalarining to'lovga qobiliyatsizligi hisobi va sanatsiya jarayonlarini tashkil etishning me'yoriy-huquqiy asoslarini o'rganish;

korxonalarining to'lovga qobiliyatsizligi hisobi va tahlilining xorijiy tajribalarini mamlakatimizda qo'llash imkoniyatlarini tatbiq etish;

to'lovga qobiliyatsiz korxonalar moliyaviy holatining tahlili va ularda tugatish balansini tuzish amaliyotini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish;

to'lovga qobiliyatsizlik va moliyaviy sog'lomlashtirish jarayonlari hisobining o'ziga xos xususiyatlari tadqiq qilish;

O'zbekistonda iqtisodiy nochor korxonalarining moliyaviy sog'lomlashtirish usullarini tahlil qilish;

moliyaviy sog'lomlashtirish jarayonlari samaradorligi tahlilini o'tkazish;

to'lovga qobiliyatsizlik holatini ekonometrik modellashtirish orqali prognozini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi tarkibida faoliyat yurituvchi korxonalar va "Kvarts" AJning faoliyati tanlangan.

Tadqiqotning predmetini korxonalarining to'lovga qobiliyatsizlik holatlari va sanatsiya jarayonlari doirasida yuzaga keladigan moliyaviy-iqtisodiy munosabatlar tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada ilmiy abstraksiyalash, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil, iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish va prognozlash, mantiqiy va sabab-oqibat tahlil usullaridan keng foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quydagilardan iborat:

sanatsiya jarayonida davlat subsidiyalari hisobini yuritish uslubiyoti 4870-"Olinadigan subsidiyalar" va 9381-"Davlat subsidiyalaridan daromadlar" nomli analitik ishchi schotlarini kiritish orqali takomillashtirilgan;

sanatsiya jarayonlarida qisqa muddatli kreditorlik qarzlarni muddatini 1 yildan ortiq muddatga kechiktirish bo'yicha erishilgan bitimlar asosida joriy majburiyatlarni uzoq muddatli majburiyatlarga tasniflangan qismi hisobini yuritishda 7260-"Bitimlar asosida erishilgan uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar" ishchi schotidan foydalanish taklif etilgan;

moliyaviy sog'lomlashtirish taomillari amalga oshirilayotgan korxonalar moliyaviy-iqtisodiy ahvoli tahlilining asosiy ko'rsatkichlari tizimi "Qarz yuki koeffitsiyenti", "Qarzlarni pul oqimi orqali qoplash koeffitsiyenti" va "Operatsion pul oqimlari orqali to'lov qobiliyati koeffitsiyenti" ko'rsatkichlarini kiritish orqali takomillashtirilgan;

korxonalarining to'lovga qobiliyatsizligi va moliyaviy barqarorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning ta'sir kuchi ekonometrik modellashtirish asosida baholangan va 2030 yilgacha bo'lgan muddatda korxonaning moliyaviy natijalari prognoz qilingan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

sanatsiya jarayonlarida davlat organlari tomonidan olingan subsidiya summalari hisobini yuritishda foydalanish uchun taklif etilgan ishchi schotlarni buxgalteriya hisobida qo'llash olingan subsidiyalarni aniq va tizimli aks ettirishga xizmat qilib, ularni maqsadli ishlatilishi, daromad hamda xarajatlarni to'g'ri tan olinishini obyektiv baholash imkonini yaxshilagan;

sanatsiya jarayonlaridagi korxonalarda 7260-“Bitimlar bo'yicha erishilgan uzoq muddatli majburiyatlar” ishchi schotidan foydalanish joriy va uzoq muddatli kreditorlik qarzdorliklarni aniq ajratish imkonini berib, moliyaviy hisobotlar ishonchliligi, shaffofligini ta'minlashga xizmat qilgan. Shuningdek, kreditor qarzdorliklarni qayta tasniflanishi natijasida korxonalar likvidlik va to'lov qobiliyati bo'yicha ko'rsatkichlarini xolis baholash, to'lov muddati kechiktirilgan kreditorlik qarzlarni nazorat qilish hamda moliyaviy tahlil sifatini oshirish imkoniyatlari yaxshilangan;

korxonalar moliyaviy-iqtisodiy ahvoli tahlilida takomillashtirilgan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish korxonaning real moliyaviy barqarorligiga obyektiv baho berish imkoniyatini yaxshilab, qarz miqdorining daromad va pul oqimlariga nisbatini aniqlash hamda, likvidlik va to'lov qobiliyati xolati to'g'risidagi xulosalarni ishonchliligini mustahkamlashga xizmat qilgan;

to'lovga qobilyatsizlik va moliyaviy barqarorlikga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik modellashtirish orqali baholash xo'jalik subyektlarida 2030-yilga qadar to'lovga qobilyatsizlik hamda nolikvidlikga olib keluvchi omillarni oldini olishga qaratilgan aniq va ilmiy asoslangan prognozlar tuzish imkonini bergan. Shuningdek, mazkur modelni qo'llash korxonalarda risklarni oldindan aniqlash, inqiroz ehtimolini kamaytirish va moliyaviy resurslarni oqilona taqsimlash, strategik rejalarni takomillashtirish, investitsiya hamda kredit siyosatini asosli shakllantirish hamda uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta'minlashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya natijalari va xulosalarining ishonchliligi muallif tomonidan mavzuga oid xorijiy hamda o'zbekistonlik olimlar olib borgan ilmiy-nazariy, uslubiy tadqiqotlar, O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari tahliliga asoslanganligi, statistik ma'lumotlarni taqqoslash, modellashtirish va kompyuter hisob-kitoblari, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi orqali belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bozor iqtisodiyotida inqiroz holatiga tushgan korxonalarining to'lovga qobiliyatsizligini aniqlash, baholash va ularni moliyaviy sog'lomlashtirish jarayonlarini kompleks tahlil qilish orqali ushbu sohadagi nazariy bilimlar doirasini kengaytirishi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati to'lovga qobiliyatsizlik holatidagi korxonalar faoliyatini tartibga solishda qo'llaniladigan institutsional, hisob-analitik va tashkiliy mexanizmlarni takomillashtirishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Xususan, iqtisodiy nochor korxonalarini moliyaviy sog'lomlashtirish va sanatsiya qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish, hududiy darajadagi inqirozga uchragan korxonalarini davlat va mahalliy hokimiyat organlari tomonidan qo'llab-

quvvatlash, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish va iqtisodiy faol subyektlar sifatini saqlab qolishga qaratilgan siyosiy-iqtisodiy qarorlarni asoslash mumkinligi bilan izohlanadi.

Bundan tashqari, tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida "Korxonalar iqtisodiyoti", "Biznesni boshqarish", "Moliyaviy tahlil", "Iqtisodiy tahlil", "Biznesda buxgalteriya hisobi" kabi fanlarning o'quv-uslubiy ta'minotini takomillashtirishda, ilmiy tadqiqot faoliyatida va amaliy konsalting jarayonlarida foydalanish uchun muhim metodologik va amaliy manba hisoblanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Korxonalarining to'lovga qobiliyatsizligi va sanatsiya jarayonlari buxgalteriya hisobi va tahlilini takomillashtirish yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

sanatsiya jarayonidagi korxonalarda davlat subsidiyalari hisobini yuritish uslubiyotini 4870-"Olinadigan subsidiyalar" va 9381-"Davlat subsidiyalaridan daromadlar" nomli analitik ishchi schotlar asosida takomillashtirish bo'yicha bergan tavsiyasi "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi tarkibidagi «Art soft tex» MCHJ QK, Ksm Tex Group MCHJ, Betlis Tekstil MCHJ, Osiyo Grand Tekstil MCHJ tomonidan amaliyotga joriy etilgan ("O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasining 2025-yil 14-avgustdagi 02/25-1974-sonli malumotnomasi). Mazkur tavsiyani joriy etilishi olingan subsidiyalarni buxgalteriya hisobida aniq va tizimli aks ettirishni ta'minlab, ularni maqsadli ishlatilishi, daromad hamda xarajatlarni to'g'ri tan olinishini obyektiv baholash imkonini yaxshilagan;

sanatsiya jarayonlarida qisqa muddatli kreditorlik qarzlarni muddatini 1 yildan ortiq muddatga kechiktirish bo'yicha erishilgan bitimlar asosida joriy majburiyatlarni uzoq muddatli majburiyatlarga tasniflangan qismi hisobini yuritishda 7260-"Bitimlar asosida erishilgan uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar" ishchi schotidan foydalanish bergan taklifi "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi tarkibidagi «Art soft tex» MCHJ QK, Ksm Tex Group MCHJ, Betlis Tekstil MCHJ, Osiyo Grand Tekstil MCHJ tomonidan amaliyotga joriy etilgan ("O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasining 2025-yil 14-avgustdagi 02/25-1974-sonli malumotnomasi). Mazkur taklifni joriy etilishi joriy va uzoq muddatli kreditorlik qarzdorliklarni aniq ajratish imkonini berib, moliyaviy hisobotlar ishonchliligi, shaffofligini ta'minlashga xizmat qilgan. Shuningdek, kreditor qarzdorliklarni qayta tasniflanishi natijasida korxonalar likvidlik va to'lov qobiliyati bo'yicha ko'rsatkichlarini xolis baholash, to'lov muddati kechiktirilgan kreditorlik qarzlarni nazorat qilish hamda moliyaviy tahlil sifatini oshirish imkoniyatlari yaxshilangan;

moliyaviy sog'lomlashtirish taomillari amalga oshirilayotgan korxonalarda moliyaviy-iqtisodiy ahvol tahlilida takomillashtirilgan ko'rsatkichlari tizimidan foydalanish bo'yicha bergan taklifi "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi tarkibidagi «Art soft tex» MCHJ QK, Ksm Tex Group MCHJ, Betlis Tekstil MCHJ, Osiyo Grand Tekstil MCHJ tomonidan amaliyotga joriy etilgan ("O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasining 2025-yil 14-avgustdagi 02/25-1974-sonli malumotnomasi). Mazkur tavsiyani joriy etilishi korxonaning real moliyaviy barqarorligiga obyektiv baho berish imkoniyatini yaxshilab, qarz miqdorining daromad va pul oqimlariga nisbatini aniqlash hamda likvidlik va

to'lov qobiliyati xolati to'g'risidagi xulosalarni ishonchliligini mustahkamlashga xizmat qilgan;

korxonalarining to'lovga qobiliyatsizligi va moliyaviy barqarorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning ta'sir kuchi ekonometrik modellashtirish asosida baholangan va 2030-yilgacha bo'lgan muddatda korxonaning moliyaviy natijalari bo'yicha prognozi davlat ishtirokidagi sanoat korxonalarida foydalanish uchun qabul qilingan ("Davlat aktivlarini boshqarish agentligi"ning 2025-yil 18-avgustdagi 02/12-17/2571-sonli malumotnomasi). Mazkur tavsiyadan foydalanish xo'jalik subyektlarida 2030-yilga qadar to'lovga qobiliyatsizlik hamda nolikvidlikga olib keluvchi omillarni oldini olishga qaratilgan aniq va ilmiy asoslangan prognozlar tuzish imkonini bergan. Shuningdek, mazkur modelni qo'llash korxonalarda risklarni oldindan aniqlash, inqiroz ehtimolini kamaytirish va moliyaviy resurslarni oqilona taqsimlash, strategik rejalarni takomillashtirish, investitsiya hamda kredit siyosatini asosli shakllantirish hamda uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta'minlashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Dissertatsiya natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferentsiyalarda muhokama qilingan va ma'qullangan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, uning hajmi 135 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning maqsadi, vazifalari, obykti va predmeti belgilab olingan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, dissertatsiyaning mavzusi bo'yicha tadqiqotlar sharhi keltirilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishiga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Korxonalarining to'lovga qobiliyatsizligi hisobi va sanatsiya jarayonlarini nazariy, uslubiy, tashkiliy masalalari**" deb nomlangan birinchi bobida korxonalarining to'lovga qobiliyatsizligi hisobi va sanatsiya jarayonlarining iqtisodiy mohiyati ochib berilgan, korxonalarining to'lovga qobiliyatsizligi hisobi va sanatsiya jarayonlarini tashkil etishning me'yoriy-huquqiy asoslari o'rganilgan, korxonalarining to'lovga qobiliyatsizligi hisobi va tahlilining xorijiy tajribalarini mamlakatimizda qo'llash imkoniyatlari tahlil qilingan.

Iqtisodchi olimlarni to'lovga qobiliyatsizlik borasidagi yondashuvlarni bayon etganlar, xususan Fransiyalik olim Rachid Achbah "o'z tadqiqotlarida korxonalar bankrotligining huquqiy va iqtisodiy jihatlarini o'rgangan, uning firkiha

moliyaviy nochorlik va to'lovga qobiliyatsizlikning kelib chiqishida moliyaviy va buxgalteriya xizmati xodimlarining malakasi muhim belgilovchi omil sanaladi".

Xinlin Wang va Mats Brorsson "firmalarning kredit riskini baholashda moliyaviy ko'rsatkichlar bilan birga qayta tashkil etish (restructuring behaviour) to'g'risidagi ko'rsatkichlarni birlashtirgan va 4-13% gacha prognoz aniqligini yaxshilashni ko'rsatgan". Bu usul O'zbekistonda moliyaviy muammolarga qarshi strategiyalarni ishlab chiqishda qulay baza bo'lib xizmat qiladi.

Indoneziyalik tadqiqotchilar Eka Daurrohmah va boshqalar "bankrotlik va sud tizimidagi soxta operatsiyalarni aniqlash uchun buxgalteriya usullarini joriy etish modelini taklif qilgan". O'zbekiston uchun bu tiklanish jarayonlarida adolat va shaffoflikni ta'minlashda muhim imkoniyatlar yaratadi.

To'lovga qobiliyatsizlik masalalarini tahlil qilishda yana bir taniqli xorijlik mutaxassis Altmanning tadqiqotlari muhim o'rin tutadi. "Amaliyotda moliyaviy muammolarni oldindan aniqlashda - Altman Z-score modelidan keng qo'llaniladi, u shu bilan bir qatorda, korxonalarining bankrotlik ehtimolini aniqlashda moliyaviy ko'rsatkichlarning ahamiyatiga alohida e'tibor qaratgan".

Arizona universiteti professori Jay R. Ritter bankrotlik jarayonlari va sanatsiyaning bozor mexanizmlari va kompaniya qiymatiga ta'siri haqidagi tadqiqotlari bilan mashhur, u o'z tadqiqotlarida "sanatsiya jarayonlarining aksiya bozoriga va investorlar qaroriga ta'sirini tahlil qilgan".

Garvard Biznes Maktabi (Harvard Business School) vakili Stuart C. Gilson o'z tadqiqotlarida "kompaniyalar qiymati va qarz strukturasi sanatsiya jarayonlariga ta'sirini tahlil qilgan" shuningdek, sud orqali qayta tashkil etish va suddan tashqari sanatsiya mexanizmlarini solishtirgan.

Rossiyalik mutaxassis R.Chalenko o'z tadqiqotlarida "to'lovga qobiliyatsizlik sharoitida korxonada hisob-tahlil amaliyotini takomillashtirish masalalarini keng tahlil qilgan".

A. Xomyakova "korxonalarining iqtisodiy nochorlik manbalarini tahlil qilish asosida korxonalarini moliyaviy sog'lomlashtirish yo'llari va vositalariga" o'z tadqiqotlarida katta urg'u bergan.


O'zbekistonda ham bu borada ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilganligini ta'kidlash lozim. Xususan, N.Karimov "korxonalarining bankrotlik sabablari, ularni moliyaviy sog'lomlashtirish usullari va xorijiy tajribalarni" tadqiq qilgan.

K.Islomov "to'lovga qobiliyatsiz korxonalarini tugatish amaliyoti" masalalariga o'z tadqiqotlarida katta e'tibor qaratgan mahalliy mutaxassislardan biri hisoblanadi.

M.Yu. Raximov o'z ilmiy ishlarida ("Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili" nomli o'quv qo'llanmasida) xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligi, kreditga layoqatligi hamda qarz va kapital strukturasi tahlilining nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Olimning yondashuvlari tadqiqotimiz mavzusi bilan bog'liq bo'lib, dissertatsiyaning nazariy-metodologik asoslarini shakllantirishda muhim manba sifatida xizmat qilgan.

R.Murotov "iqtisodiy nochor korxonalarini moliyaviy sog'lomlashtirish masalalarini" o'z tadqiqotlarining markaziga qo'yadi va bu borada amaliy taklif va tavsiyalarni ilgari suradi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2025-yil 1-yanvar holatiga 424,8 mingtani tashkil etdi, ulardan 361,8 mingtasi tadbirkorlik subyektlaridir. Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo - 32,3 foiz, sanoat - 13,1 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi - 7,3 foiz, qurilish - 6,5 foizni tashkil etadi. Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar sonini yillar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, 2020-yilda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 475197 tani tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilga kelib 424840 tani tashkil qilgan. Shu bilan bir qatorda, 2024-yilda korxonalar va tashkilotlarning yakuniy moliyaviy natijasi 108,7 trln so'mdan oshgani holda, zarar ko'rib ishlayotgan korxonalar va tashkilotlarning salmog'i yuqoriligicha qolmoqda. Ayniqsa bu holat hududlar kesimida yaqqol ko'zga tashlanadi, jumladan zarar ko'rib ishlayotgan korxonalar ulushi Jizzax (40,4%), Surxondaryo (32,8%), Sirdaryo (32%) viloyatlarida yuqori⁵ (1-rasm).



1-rasm. Respublika hududlari kesimida korxonalar faoliyatining moliyaviy natijalari⁶

O'zbekistonda biznes muhitni yaxshilash, korxonalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash borasida ishlarning ko'lamliligiga qaramasdan bankrot iqtisodiy sudlar tomonidan bankrot deb topilgan korxonalar ulushi yuqori ekanligini ko'rish mumkin, xususan, 2024-yilda respublika bo'yicha 6532 ta korxonalar bankrot deb topilgan. Bu borada eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahri va Buxoro viloyatlarida kuzatilgan (1-jadval).

Keltirilgan 1-rasm. va 1- jadval ma'lumotlarini tahlil qilish O'zbekistonda to'lovga qobiliyatsizlik amaliyotini huquqiy jihatdan tartibga solishni takomillashtirish lozimligini ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasida to'lovga qobiliyatsizlik (bankrotlik) tushunchasi va uning hisob-kitob tizimi mamlakatning iqtisodiy rivojlanish yo'lining muhim qismi sifatida huquqiy jihatdan mustahkamlanmoqda. Bu borada "To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni sohadagi munosabatlarni tartibga soladi.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

⁶ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

2019-2024 yillarda bankrot deb topilgan korxonalar statistikasi⁷

№	Hududlar nomi	Bankrot deb topilgan korxonalar soni					
		2019	2020	2021	2022	2023	2024
Respublika bo'yicha		8410	7005	8740	7864	11957	6532
1	Qoraqalpog'iston	448	227	481	627	1783	339
2	Andijon	3129	874	418	361	1207	284
3	Buxoro	290	304	642	810	952	858
4	Jizzax	547	785	743	670	806	465
5	Qashqadaryo	291	148	794	1803	1267	438
6	Navoiy	73	57	162	329	251	134
7	Namangan	738	835	388	497	550	593
8	Samarqand	670	334	1082	473	678	386
9	Surxondaryo	724	2215	1094	306	861	748
10	Sirdaryo	390	277	718	294	573	40
11	Toshkent	172	108	745	436	855	513
12	Farg'ona	564	487	650	412	759	334
13	Xorazm	198	185	346	225	356	464
14	Toshkent sh.	176	169	477	621	1059	936


“To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida” Qonunining 5-moddasida “vaqtincha to‘lovga qobiliyatsizlik - agar tegishli majburiyatlar yuzaga kelgan sanadan e‘tiboran uch oy ichida qarzdor tomonidan bajarilmagan bo‘lsa, shaharni tashkil etuvchi korxonalar hamda unga tenglashtirilgan korxonalar tomonidan esa olti oy ichida bajarilmasa, sudga murojaat etish sanasida qarzdorning pul majburiyatlari bo‘yicha kreditorlar talablarini qanoatlantirishga va (yoki) soliqlar hamda yig‘imlar bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishga qodir emasligi; doimiy to‘lovga qobiliyatsizlik - agar sudga ariza berish sanasidagi va ariza berilgan yilning boshidagi hisobot davrida, agarda ariza yilning birinchi choragida berilgan bo‘lsa, o‘tgan yilning boshidagi hisobot davrida qarzdorning majburiyatlari uning aktivlari qiymatidan oshib ketgan bo‘lsa”⁸ sifatida ta’riflanadi.

To‘lovga qobiliyatsizlik ehtimoli ikkita asosiy yondashuvdan foydalangan holda baholanadi: sifat va miqdoriy tahlil (2-rasm).

Sifat yondashuvi ko‘pincha tashkilotning ichki muhiti bilan bog‘liq bo‘lgan mezonlar va atributlarning kompleks tizimiga yo‘naltirilgan usullardan foydalanishda foydalidir. Boshqa tomondan, miqdoriy hisob-kitoblar tashkilotning moliyaviy ma’lumotlarini tahlil qilish va ularni oldindan belgilangan standartlar bilan taqqoslashni o‘z ichiga oladi. O‘zbekistonda korxonalarni rivojlantirishda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni aniqlash va bankrotlik ehtimoliga tashxis qo‘yish orqali moliyaviy barqarorlikni ta’minlash rejasini tuzish mumkin.

⁷ <https://davaktiv.uz/uz/bankrot>

⁸ O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 12-apreldagi O‘RQ-763-sonli "To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida"gi Qonuni, <https://lex.uz/docs/5957612>



2-rasm. To'lovga qobiliyatsizlikni prognozlash usullari⁹

Bu ishlar sudgacha sanatsiya, tashqi boshqaruv, tugatish va kelishuv bitimi kabi mexanizmlar mavjud bo'lib, ular korxonani moliyaviy sog'lomlashtirishga yoki adolatli tugatishga qaratilgan.

Dissertatsiyaning **“To'lovga qobiliyatsizlik holatidagi korxonalar faoliyati tahlili va sanatsiya jarayonlari hisobini takomillashtirish” nomli ikkinchi bobida** iqtisodiy nochor korxonalarda tugatish balansini tuzish amaliyotini takomillashtirish, to'lovga qobiliyatsizlik va moliyaviy sog'lomlashtirish jarayonlari hisobining o'ziga xos xususiyatlari, O'zbekistonda to'lovga qobiliyatsiz korxonalar holatining tahlili va ularning moliyaviy sog'lomlashtirish usullari bayon etilgan.

2-jadval

Korxonalarining 2024-yil yakunlari bo'yicha asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari (ming so'm)¹⁰

Ko'rsatkichlar	Art Soft Tex MCHJ QK	Ksm Tex Group MCHJ	Betlis tekstil MCHJ	Osiyo grand tekstil
Uzoq muddatli aktivlar	666 970 989	12 009 943	13 472 429	3 402 786
Joriy aktivlar	1 349 815 717	7 748 666	30 434 997	1 017 729
Jami aktivlar	2 016 786 706	19 758 609	43 907 426	4 420 515
O'z mablag'lari manbalari	-173 877 767	12 311 374	29 286 305	2 256 931
Joriy majburiyatlar	1 435 502 744	3 050 480	12 200 099	2 163 584
Uzoq muddatli majburiyatlar	755 161 729	4 396 755	2 421 022	0
Jami majburiyatlar	2 190 664 473	7 447 235	14 621 121	2 163 584
Sof foyda	-73 095 684	2 404 849	6 365 296	35 711

⁹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

¹⁰ Korxonalar hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Korxonalarining moliyaviy barqarorligini tahlil qilish jarayoni bir necha ketma-ket bosqichlarni o'z ichiga oladi. Tadqiqot doirasida “Art soft tex” Mchj QK, “Ksm tex group” MCHJ, “Betlis Tekstil” MCHJ, “Osiyo Grand Teksti” MCHJ-to‘qimachilik sanoatidagi korxonada amaliy tahlil o‘tkazildi (2-jadval).

Yuqoridagi moliyaviy ko‘rsatkichlar asosida, korxonalarda jami aktivlari yuqori bo‘lishiga qaramay, majburiyatlar hajmining katta bo‘lishi va sof foydaning salbiy ko‘rsatkichi korxonaning to‘lovga qobiliyatsizlikka yaqin ekanini ko‘rsatadi. Xuddi shunday, “Art Soft Tex” MCHJ QKda ham umumiy majburiyatlar umumiy aktivlarning 108%ini tashkil etadi, bu esa ushbu korxonani doimiy to‘lovga qobiliyatsiz ekanligini bildiradi.

To‘lov qobiliyati (qoplash) koeffitsienti korxonaning nafaqat debitorlar bilan o‘z vaqtida hisob-kitob qilish va tayyor mahsulotni qulay sharoitda sotish sharti bilan, balki boshqa moddiy joriy (aylanma) mablag‘lar elementlari sharoitida baholanuvchi qisqa muddatli majburiyatlarni to‘lash imkoniyatlariga egaligini ko‘rsatadi. Koeffitsientning kamayishi korxonaga to‘lov imkoniyatlarining pasayganligini ko‘rsatadi.

3-jadval

To‘lov qobiliyati (qoplash) koeffitsienti qiyosiy tahlili¹¹

Korxonalar	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil
“Art soft tex” Mchj QK	10,3	2,09	1,44	1,45	0,94
Ksm tex group Mchj	1,03	0,78	6,21	4,39	2,54
Betlis Tekstil Mchj	7,77	8,12	7,69	5,58	2,49
Osiyo Tekstil Mchj	1,01	1,27	1,08	0,62	0,47

Keltirilgan 3-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, “Art soft tex” Mchj QK, Ksm tex group MCHJ, Betlis Tekstil Mchj, Osiyo Grand Tekstil Mchjlarning to‘lov qobiliyati (qoplash) koeffitsienti turli dinamikalarni qayd etganligini ko‘rishimiz mumkin.

4-jadval

Korxonalar moliyaviy-iqtisodiy holatining asosiy ko‘rsatkichlari¹²

Ko‘rsatkichlar		To‘lovga qobiliyatsiz
Asosiy ko‘rsatkichlar	To‘lov qobiliyati (qoplash) koeffitsiyenti (T_{qk}):	$T_{qk} < 1.25$
	O‘z aylanma mablag‘lari bilan ta’minlanish koeffitsiyenti (O'_{ak})	$O'_{ak} < 0.2$
	Korxonaga aktivlari va xarajatlari rentabelligi (X_{rk}, A_{rk})	$X_{rk}, A_{rk} < 0$
Qo‘shimcha ko‘rsatkichlar	O‘z mablag‘lari va qisqa muddatli qarz mablag‘lari nisbati koeffitsiyenti (O'_{qk})	$O'_{qk} < 1$
	Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish koeffitsiyenti (Q_{fk})	$Q_{fk} < 0.5$
	Asosiy vositalarning eskirish koeffitsiyenti (A_{vek})	$A_{vek} > 0.5$

¹¹ Korxonalar hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

¹² Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzildi

Koeffitsiyent quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$T_{qk} = \frac{\text{Joriy (aylanma) aktivlar}}{\text{Joriy majburiyatlar}} = \frac{A_2}{P_2 - U_{mm}},$$

bunda: A_2 — joriy (aylanma) aktivlar, balans aktivining II bo‘lim, 390-satri;

P_2 — majburiyatlar, balans passivining II bo‘lim, 770-satri;

U_{mm} — uzoq muddatli majburiyatlar, balans passivining II bo‘lim, 490 satri.

Agar to‘lov qobiliyati koeffitsiyenti hisobot davrining yakuniga kelib 1,25 qiymatidan past bo‘lsa, shu ko‘rsatkich bo‘yicha korxonaga to‘lovga qodir emas, deb hisoblanadi. O‘z aylanma mablag‘lari bilan ta‘minlanganlik koeffitsiyenti moliyaviy barqarorlik, korxonaga egalari va kreditorlar manfaatlariga mos kelishi uchun zarur bo‘lgan korxonaning o‘z aylanma mablag‘lari mavjudligidan dalolat beradi.

Koeffitsiyent quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$O'_{ak} = \frac{(P_1 + U_{qk2}) - A_1}{A_2},$$

bunda: A_1 — uzoq muddatli aktivlar (asosiy mablag‘lar, nomoddiy aktivlar, kapital qo‘yilmalar va boshqalar) balans aktivining I bo‘lim, 130-satri;

P_1 — o‘z mablag‘larining manbalari (ustav kapitali, zaxira kapitali, qo‘shimcha kapital, taqsimlanmagan foyda va boshqalar) balans passivining I bo‘lim, 480-satri;

U_{qk2} — uzoq muddatli aktivlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan uzoq muddatli qarz va kreditlar (buxgalteriya balansining 570 va 580-satrlari bo‘yicha hisoblab chiqariladi).

Ushbu kasr surati korxonaga o‘z mablag‘lari summasining qancha qismi aylanma mablag‘larga yo‘naltirilgani, maxraji — barcha aylanma mablag‘lar summasini ko‘rsatadi. Ushbu koeffitsiyentning eng kam qiymati — 0,2.

Agar o‘z aylanma mablag‘lari bilan ta‘minlanganlik koeffitsiyenti hisobot davri oxirida 0,2 dan kam qiymatga ega bo‘lsa, u holda korxonaga o‘z aylanma mablag‘lari bilan ta‘minlanmagan sanaladi.

Xarajatlar va aktivlarning rentabellik koeffitsiyenti korxonaning moliya-xo‘jalik faoliyatining foydalilik (zararlilik) darajasini ko‘rsatadi.

Xarajatlar rentabelligi koeffitsiyenti quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$X_{rk} = \frac{S_{tf}}{X},$$

bunda: S_{tf} — foyda solig‘ini to‘lagunga qadar foyda, “Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot” 2-son shaklning 240-satr 5-ustuni yoki foyda solig‘ini to‘lagunga qadar zarar, “Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot” 2-son shaklning 240-satr 6-ustuni “ — ” belgisi bilan;

X — jami xarajatlar, “Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot” 2-son shakldan satrlar (020 “6-ustun” + 040 “6-ustun” + 170 “6-ustun” + 230 “6-ustun”) yig‘indisi;

Aktivlar rentabelligi koeffitsiyenti faqat yil yakunlariga ko‘ra quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$A_{rk} = \frac{S_{tf}}{O'_b},$$

bunda: O'_b — balansning jami aktivi yoki passivining o‘rtacha qiymati bo‘lib, o‘rtacha arifmetik yoki o‘rtacha xronologik formula bo‘yicha hisoblangan.

Agar hisobot davri uchun rentabellik koeffitsiyentlari:

noldan past (manfiy ko‘rsatkich) chiqsa, korxonada zarar ko‘rib ishlayotgan;

0,05 dan past chiqsa, korxonada past rentabelli (monopol korxonalaridan tashqari) hisoblanadi.

O‘z va qisqa muddatli qarz mablag‘larining nisbat koeffitsiyenti (joriy moliyaviy mustaqillikda) qarz mablag‘larini o‘z manbalari orqali qaytarish bilan ta‘minlanganlik darajasini belgilaydi.

Koeffitsiyent quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$O'_{qk} = \frac{P_1}{P_2 - U_{mm}}$$

Agar o‘z va qisqa muddatli qarz mablag‘larining nisbat koeffitsiyenti hisobot davri yakunida 1 dan past qiymatga ega bo‘lsa, bu hol korxonada moliyaviy tavakkalchilik mavjudligidan guvohlik beradi. Koeffitsiyentning pasayib borishi korxonada moliyaviy tavakkalchiligining oshib borishini ko‘rsatadi. Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish koeffitsiyenti ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini bildiruvchi ko‘rsatkichdir:

$$Q_{fk} = \frac{Q_{haq.}}{Q_{loyiha} - (Q_{ijara} + Q_{konserv.})},$$

bunda: $Q_{haq.}$ — ishlab chiqarilgan mahsulot (ko‘rsatilgan xizmat)ning hisobot davridagi taqqoslanadigan qiymat ko‘rinishidagi haqiqiy hajmi;

Q_{loyiha} — belgilangan vaqt davomida asosiy texnologik uskunalardan to‘liq foydalanish va belgilangan ish rejimiga rioya qilish orqali erishish mumkin bo‘lgan mahsulot ishlab chiqarish (xizmatlar ko‘rsatish)ning taqqoslanadigan qiymat ko‘rinishidagi eng ko‘p hajmi;

Q_{ijara} - ijaraga berilgan quvvatlarga to‘g‘ri keluvchi mahsulot (taqqoslanadigan) hajmlari;

$Q_{konserv.}$ - konservatsiya qilingan quvvatlarga to‘g‘ri keluvchi mahsulot (taqqoslanadigan) hajmlari.

Agar ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish koeffitsiyenti hisobot davrida 0,5 dan yoki o‘rtacha tarmoqnikidan past bo‘lsa, u holda korxonaning ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi past hisoblanadi.

Asosiy vositalarning eskirish koeffitsiyenti asosiy fondning davr uchun eskirish ulushini bildiruvchi ko‘rsatkich bo‘lib, asosiy vositalarning boshlang‘ich narxiga nisbatan eskirish qiymati asosida aniqlanadi:

$$A_{\text{vek}} = \frac{E}{A},$$

bunda: E - asosiy vositalarning eskirishi - balans aktivining 011-satri,
A - asosiy vositalarning dastlabki qiymati - balans aktivining 010-satri.

Agar asosiy vositalarning eskirish koeffitsiyenti ko‘rilayotgan davr oxirida 0,5 qiymatidan oshsa, korxonaning asosiy vositalari sezilarli darajada eskirgan hisoblanadi.

Bugungi kunda korxonaning moliyaviy-iqtisodiy ahvolini yuqorida keltirilgan asosiy va qo‘shimcha ko‘rsatkichlar bilan birga muayyan sohalar uchun kengaytirilgan ko‘rsatkichlar tizimidan ham foydalaniladi.

1) Qarz yuki koeffitsiyenti:

$K_{\text{qy}} = \text{Jami qarz majburiyatlari} / (\text{operatsion faoliyat foydasi} + \text{hisobot davri amortizatsiyasi})$

Me‘yoriy miqdor: $K_{\text{qy}} \leq 3.0-4.0$

2) Qarzlarni pul oqimi orqali qoplash koeffitsiyenti:


$K_{\text{qpoq}} = \text{Operatsion pul oqimi} / \text{Jami qarz majburiyatlari}$

Me‘yoriy miqdor: $K_{\text{qpoq}} \geq 0.3-0.5$

3) Operatsion pul oqimlari orqali to‘lov qobiliyati koeffitsiyenti:

$K_{\text{opotq}} = \text{Operatsion pul oqimi} / \text{qisqa muddatli majburiyatlar}$

Me‘yoriy miqdor: $K_{\text{opotq}} \geq 0.3-0.5$



3-rasm. Korxonalarda to‘lovga qobiliyatsizlik holatlarini buxgalteriya hisobida aks ettirish modeli¹³

¹³ Muallif ishlanmasi.

Korxonada moliyaviy nochorlik holatlarini hisobga olishga doir buxgalteriya modeli 3-rasmda berilgan bo‘lib, muallifning fikricha, ushbu hisob ikki o‘zaro qarama-qarshi yo‘nalishda — mulkchilikka munosabat nuqtayi nazaridan — tashkil etiladi. Boshqacha aytganda, moliyaviy nochorlikni aks ettiruvchi hisob yo‘nalishlari aktivlarni boshqarish va majburiyatlar tuzilmasini qayta baholash asosida shakllanadi. Birinchi yo‘nalish mulkning yo‘qotilishi yoki to‘liq bekor qilinishi bilan bog‘liq. Ikkinchi yo‘nalish esa mulkni saqlash va qayta tiklashga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14 martdagi "Tashqi savdo va hududiy sanoatni rivojlantirishda tadbirkorlar birlashmalarining rolini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-126-son qaroriga muvofiq tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilariga «Savdoni rivojlantirish kompaniyasi» aksiyadorlik jamiyati tomonidan Savdoga ko‘maklashish jamg‘armasi mabdag‘lari hisobidan subsidiya ajratish ko‘zda tutilgan bo‘lib "O‘zto‘qimachilik sanoat" uyushmasi tarkibidagi korxonalar bundan keng foydalanib kelmoqda.

